



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-91-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘ining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qaroriga asosan, tumanda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning bandligini ta’minlash, kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i D.Shanayevning hisoboti eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr–mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24–moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i D.Shanayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (D.Shanayev):

- mahallalar kesimida nomma-nom shakllantirilgan ish bilan band bo‘lmagan yoshlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni tanqidiy ruhda qayta ko‘rib chiqish va jonlantirish;

- yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tumanda tug‘ilib, xorijda ta’lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish;

- yoshlarning xalqaro, Respublika fan olimpiadalari va tanlovlarda hamda yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta'minlash, yoshlarning xalqaro mehnat bozorlariga chiqishiga ko'maklashish;

- ta'lim muassasalari bitiruvchilari, doimiy ish o'rniغا ega bo'lmagan, muddatli harbiy xizmatni o'tab kelgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, xorijdan qaytgan yoshlarni mehnat yarmarkalariga jalb etish va bo'sh ish o'rinalariga joylashtirish;

- sektorlarda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar, muammoli oilalar bilan ishslashning samarali tizimini yo'lga qo'yish, bunda mahalla, yoshlar ittifoqi, ta'lim muassasalari, barcha jamoat tashkilotlari va keng jamoatchilikning mas'uliyatini kuchaytirish choralarini ko'rish;

- sektor rahbarlari bilan kelishilgan holda mahallalarda yoshlar bilan sayyor qabullar o'tkazish, muammo va takliflarini muhokama etish;

- tumanda yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosatini yuritish, yoshlarga oid davlat dasturlari ijrosini ta'minlash;

- yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbazarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini, shu jumladan, huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik qilish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj, yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etish, shuningdek, huquqbazarliklardan jabrlanganlar, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbazarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora- tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish,

ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini qamrab olgan beshta muhim tashabbusni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish;

- yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish;

- yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamlı iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish;

- amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ikkinchi chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Muratov boshchiligidagi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov) bilan birgalikda yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori kasb-hunarlarga tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish va ularning munosib ish topishiga ko‘maklashish uchun nodavlat kasb-hunar ta’limi markazlarini ham keng jalb qilish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Kuchkarov) har chorakda mahalliy budgetning proqnoz ko‘rsatkichlarining orttirib bajarilgan qismining kamida 15 foizi tuman “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga o‘tkazib borilishini ta’minlasin.

Bunda, tuman hokimligi bilan birgalikda “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq shakllantirishga shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi “Yoshlar daftari” jamg‘armasi daromadlarining barqaror shakllantirilishi va o‘z vaqtida moliyalashtirilishini doimiy nazorat qilib borish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva) tumanda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaroring ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) hamda tuman hokimning yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



Q.Mardonov